

FORTEPIANO IJROCHILIGI SAN'ATINING TARIXIY RIVOJLANISH BOSQICHLARI VA O'ZBEK FORTEPIANO SANATINING SHAKLLANISHI

Mo'minjon Muminov

Qo'qon davlat universiteti

Cholg'u ijrochiligi kafedrası o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18277813>

Annotatsiya: Ushbu maqolada fortepiano ijrochiligi san'atining shakllanish va tarixiy rivojlanish bosqichlari yoritilgan. Fortepiano paydo bo'lish jarayoni, mashhur bastakor va ijrochilarning bu sohadagi o'rni, texnik va badiiy ifoda uslublarining takomillashuvi ilmiy asosda tahlil qilinadi. Shuningdek, O'zbekiston fortepiano maktabining shakllanish jarayoni hamda milliy uslubning rivojlanishiga e'tibor qaratiladi.

Kalit so'zlar: Fortepiano, ijrochilik, bastakor, musiqa sna'ati, ta'lim, rivojlanish.

Musiqa inson ruhining tili, fortepiano esa bu tilning eng boy va foydali vositalaridan biridir. Har bir asrda fortepiano ijrochiligi insoniyat tafakkurining o'zgarishlarini, estetik dunyoqarashning yuksalishini o'zida aks ettirgan. Fortepiano san'ati insoniyat madaniy merosining eng muhim qismlaridan biri bo'lib, u musiqiy tafakkurning yuksak namunalari ifodalaydi. XVII asrda yaratilgan bu cholg'u tez orada butun Yevropa bo'ylab mashhur bo'lib, musiqachilikning yangi sahifasini ochdi.¹ Bugungi kunda fortepiano nafaqat klassik musiqa, balki zamonaviy janrlarning ham ajralmas qismiga aylangan. Fortepiano cholg'usi nafaqat texnik mahoratni, balki estetik did, sabr – toqat va ichki intizomni talab qiladi. Har bir shogirdning qalbida musiqaga mehr uyg'otish, uning san'atga bo'lgan ishtiyoqini mustahkamlash – bu fortepiano ta'limining eng muhim maqsadidir. Fortepiano XVIII asr boshlarida italiyalik ustoz Bartolomeo Kristofori tomonidan ixtiro qilingan. U ilgari mavjud bo'lgan klavesin va klavikordlardan farqli o'laroq tovush kuchini bosim orqali nazorat qilish imkoniyatini yaratdi.² Shu xususiyati tufayli fortepiano tez orada butun Yevropaga tarqaldi. Fortepiano tovushining kuchayishi va pasayishini nazorat qilish imkoniyati ijrochilikda yangi ifoda imkoniyatlarini yaratdi. Shundan so'ng, fortepiano tez orada Germaniya, Avstriya va Fransiya rivoj topdi. XVIII – XIX asrlar fortepiano san'atining gullagan davri bo'ldi. Bu davrda I. S. Bax, V. A. Motsart, L. Betxoven, F. Shopen, F. List, R. Shuman singari bastakorlar fortepiano uchun asarlar yaratdilar. Ularning ijodi bu cholg'uning badiiy va falsafiy salohiyatini ochib berdi.³ Fortepiano ijrochiligining rivojida F. List alohida o'rin tutadi. U konsert ijrochiligining yangi maktabini yaratib, fortepiano yakkaxon sahna cholg'usiga aylantirdi. Shopen esa fortepiano lirizm, nozik tuyg'ular va milliy ohanglarni mujassam etdi.

O'zbekistonda fortepiano san'ati XX asrning boshlarida shakllandi. 1930 – yillarda Toshkent Davlat Konservatoriyasining ochilishi bu yo'nalishning poydevorini mustahkamladi.⁴ Dastlab xorijiy pedagoglar yordamida o'quv dasturlari ishlab chiqilgan bo'lsa, keyinchalik o'zbek fortepiano maktabi shakllandi. Bu jarayonda M. Ashrafiy, M. Burhonov, N. Hakimova, G. Karimova, S. Mirzayeva kabi ustozlar ijrochilik va ta'lim sohasida katta hissa qo'shdilar.⁵ Ayniqsa, xalq kuylarining fortepiano ijrochiligi bilan uyg'unlashtirilishi milliy maktabning

¹ Tarixiy manbalar: Kristofori B. – Il pianoforte e la sua evoluzione, Firenze, 1711.

² Kristofori B. – Il pianoforte e la sua evoluzione, Firenze, 1711.

³ Grove Dictionary of Music and Musicians. London, 1980.

⁴ Karimova G. O'zbek fortepiano ijrochiligi metodikasi. Toshkent, 1978.

⁵ Burhonov M. Fortepiano ijrochiligi metodikasi. Toshkent, 1978.

o'ziga xos jihatidir. Shopen preludiyasini o'rganish bilan bir qatorda o'zbek xalq kuylaridan "Tanovar" yoki "Katta ashula" ohanglarini solishtirish orqali o'quvchining musiqiy dunyoqarashini kengaytirish mumkin. Bu usul shogirdlarda milliy g'urur va badiiy didni uyg'otadi. O'zbek fortepiano maktabining rivojida xalq kuylarining akademik fortepiano musiqasiga uyg'unlashtirilishi alohida ahamiyat kasb etadi. Bu uslub hozirda ham o'zbek fortepiano pedagogikasining o'ziga xos xususiyati sifatida e'tirof etiladi. Forteplano darslari o'z ichiga ko'p bosqichli jarayonni oladi: nazariy bilim, texnik mashqlar, badiiy tahlil va sahna tayyorgarligi. Har bir bosqichda o'qituvchining yondashuvi farq qiladi. Shogirdlarni darsga qiziqtirishining eng samarali yo'li – ularni musiqaning ichki mazmunini his etishga o'rgatishdir. Ko'p hollarda texnik xatoliklar sababi – asarning mazmunini tushunmaslikdir. Shu bois, har bir darsni asar haqida suhbat bilan boshlayman: bastakor kim bo'lgan, nima sababdan shu asarni yozgan, uning hissiy ohangi qanday – degan savollar orqali o'quvchini fikrlashga undash kerak. Bundan tashqari, darslarda ijodiy topshiriqlarni qo'llash: masalan, o'quvchidan o'rganilgan asarning o'z talqinini yaratish, improvizatsiya qilish yoki kichik konsert sahnasida ijro etish. Bu nafaqat ularning o'ziga ishonchini oshiradi, balki musiqaga shaxsiy yondashuvni shakllantiradi.⁶

Bugungi kunda fortepiano o'qituvchisi nafaqat texnik bilimlarni o'rgatishi, balki shogirdga ijodiy fikrlash, sahna madaniyati va musiqiy tafakkurni shakllantirishi zarur.⁷ Zamonaviy darslarda interaktiv texnologiyalar, audio – video tahlillar, ansambl mashg'ulotlari va onlayn o'qitish uslublari keng qo'llanilmoqda. Har bir talaba bilan individual ishlash, uning hissiy dunyosini anglash fortepiano ta'limining samaradorligini oshiradi. Ba'zan shogirdning birgina notani to'g'ri his etishi, butun asarning mazmunini ochib berishi mumkin – bu esa chin o'qituvchilik san'atidir. Forteplano darslari orqali talabalar nafaqat musiqa, balki go'zallikni his etish, sabr, e'tibor va ijodkorlik kabi fazilatlarni o'zlashtiradilar.⁸ Shu bois fortepiano ta'limi shunchaki kasbiy tayyorgarlik emas, balki insonni ma'naviy kamolot sari yetaklovchi yo'ldir. Ijrochilik jarayoni – bu faqat notalarni chalish emas, balki his – tuyg'ularni ifodalashdir. Ba'zi shogirdlar darsda mukammal chaladi, lekin sahnaga chiqqanda hayajon tufayli xatolar qiladi. Shu sababli, o'qituvchi sifatida men doimo psixologik tayyorgarlikka e'tibor beraman. Shuningdek, estetik tarbiya ham juda muhim. Forteplano orqali o'quvchilar nafaqat musiqa, balki go'zallikni idrok etishni, mehr, e'tibor, sabr – toqat kabi insoniy fazilatlarni o'rganadilar.⁹ Musiqa darslari inson ruhining uyg'unlik maktabidir. Bugungi kunda texnologiyalar musiqiy ta'limda yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Onlayn platformalar, interaktiv dasturlar, audio – video tahlillar, virtual klaviatura modullari o'quvchilarga qo'shimcha qulaylik berdi.¹⁰

Xulosa qilib aytganda, fortepiano ijrochiligi – bu san'at, ilm va pedagogika birlashgan jara san'at, ilm va pedagogika birlashgan jaraon. O'zbekiston fortepiano maktabi bugun jahon tajribasi bilan raqobatlasha oladigan darajaga yetmoqda. Forteplano darslari shogirdni nafaqat cholg'uda, balki hayotda ham intizomli, ijodiy va sabrli inson sifatida tarbiyalaydi. Har bir shogirdning muvaffaqiyati – bu o'qituvchining yuragidagi ishonch va mehr samarasidir. Men uchun fortepiano – bu nafaqat kasb, balki ruhiy makon. Har bir yangi dars – yangi kashfiyot.

⁶ Ismoilova M. Ijrochilik pedagogikasining asoslari. Toshkent, 2021.

⁷ Mirzayeva M. – Forteplano ta'limida innovatsion metodlar, TDPU, 2019.

⁸ Rahmatullayeva Sh. – Musiqa ta'limida estetik tarbiya, T., 2015.

⁹ Mirzayeva M. Forteplano ta'limida innovatsion metodlar. TDPU, 2019.

¹⁰ Qodirova N. Zamonaviy musiqa ta'limida raqamli texnologiyalar. Samarqand, 2023.

Shogirdim birgina to'g'ri tovushni topganida, men uchun bu eng katta mukofotdir. Fortepiano darslari o'qituvchidan cheksiz sabr, bilim va mehr talab qiladi. Chunki bu san'at orqali biz faqat cholg'u chalishni emas, balki inson qalbini tarbiyalaymiz.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Karimova G. O'zbek fortepiano maktab rivoji. Toshkent, 1998.
2. Kristofori B. – Il pianoforte e la sua evoluzione, Firenze, 1711.
3. Grove Dictionary of Music and Musicians. London, 1980.
4. Karimova G. O'zbek fortepiano ijrochiligi metodikasi. Toshkent, 1978.
5. Burhonov M. Fortepiano ijrochiligi metodikasi. Toshkent, 1978.
6. Ismoilova M. Ijrochilik pedagogikasining asoslari. Toshkent, 2021.
7. Mirzayeva m. Fortepiano ta'limida innovatsion metodlar. TDPU, 2019.
8. Rahmatullayeva Sh. Musiqa ta'limida estetik tarbiya. Toshkent, 2015.
9. Mirzayeva m. Fortepiano ta'limida innovatsion metodlar. TDPU, 2019.
10. Qodirova N. Zamonaviy musiqa ta'limida raqamli texnologiyalar. Samarqand, 2023.
11. Shopen F. Fortepiano asarlari to'plami. Varshava, 1845.
12. List F. Klaviatura maktabi. Berlin, 1850.
13. Bekker F. Fortepiano san'atining klassik davri. Berlin, 1956.
14. Ashrafiy M. Musiqa ta'limining rivojlanish yo'llari. Toshkent, 1960.